


QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025- yil 1-aprel holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

- I. Korxonalar va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxonalar va tashkilotlarning soni.

2025- yil 1-aprel holatiga ko'ra, viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 28 603 tani tashkil etadi, shundan 23 300 tasi yoki 81,5 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalardir. 2024- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 92,5 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 90,0 foizni tashkil etdi.



Soni



O'sish sur'ati

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).

Yillar	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2025	28 603	23 500	23 300
2024	30 933	26 035	25 891
2023	37 666	32 893	32 688
2022	37 260	32 447	32 257
2021	32 820	28 060	27 800

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxonalar va tashkilotlar Qarshi shahri – 20,4 foiz, Qarshi – 7,5 foiz, Yakkabog' – 7,1 foiz, Kitob – 7,1 foiz va Koson – 6,6 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Shahrisabz shahri – 85,5 foiz va 85,0 foiz, Qarshi – 84,9 va 84,2 foiz, Qarshi shahri – 84,7 foiz va 83,3 foiz hamda Nishon – 83,1 foiz va 82,8 foiz tumanlarga to'g'ri keldi.

Hududlar	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
G'uzor	1400	1128	1115
Dehqonobod	1185	914	909
Qamashi	1739	1423	1418
Qarshi	2142	1819	1804
Koson	1900	1532	1517
Kitob	2017	1662	1654
Mirishkor	1023	812	810
Muborak	969	804	790
Nishon	1362	1132	1128
Kasbi	1314	1085	1080
Ko'kdala	1067	827	825
Chiroqchi	1525	1204	1199
Shahrisabz	1468	1150	1138
Yakkabog'	2022	1667	1661
Qarshi shahri	5827	4936	4856
Shahrisabz shahri	1643	1405	1396

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes sub'yektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025- yil 1-aprel holatiga 31,8 foizni (38,6 foiz va 38,8 foiz) tashkil etdi.



Korxonalar va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 14,2 % (14,2 % va 17,3 %), uchinchi o'rinda "Sanoat" 9,8 % (11,9 % va 11,8 %).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50 % dan ortig'ini tashkil qiladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4065	4032	4022
Sanoat	2810	2805	2759
Qurilish	1937	1916	1886
Savdo	9084	9080	9033
Tashish va saqlash	761	755	746
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1587	1578	1573
Axborot va aloqa	373	364	364
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	991	649	645
Boshqa turlar	6995	2321	2272

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar.

2025- yil 1-aprel holatiga ko'ra, 23 500 ta faol tijorat korxonalaridan 14 315 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlarni tashkil etib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	14315	60,9
Xususiy korxonalar	5926	25,2
Oilaviy korxonalar	2935	12,5
Aksiyadorlik jamiyati	34	0,1
Boshqalar	290	1,2

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar.

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shni munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 149 ta korxonalardan 77 tasi qo'shma korxonalar va 72 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar

2025- yilning 1-aprel holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p faol korxonalar, sanoat sohasida 62 tani, savdo sohasida 33 tani va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 29 tani tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami:	149	77	72
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	29	11	18
Sanoat	62	29	33
Qurilish	8	6	2
Savdo	33	19	14
Tashish va saqlash	2	1	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2	2	-
Axborot va aloqa	-	-	-
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3	3	-
Boshqa turlar	10	6	4

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar.

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 33 ta korxonalar bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatimizdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 22,1 foizini tashkil etdi. Viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlarda Rossiya Federatsiyasi (14,1 %), Turkiya (10,7 %), Afg'oniston (8,1 %) va Janubiy Koreya (6,0 %) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami:	149	77	72
Xitoy	33	12	21
Rossiya	21	15	6
Turkiya	16	6	10
Afg'oniston	12	4	8
Janubiy Koreya	9	6	3
AQSH	6	3	3
Eron	5	4	1
Qozog'iston	5	4	1
BAA	4	3	1
Niderlandiya	4	-	4
SHveysariya	4	4	-
Buyuk Britaniya	3	1	2
Hindiston	3	2	1
Pokiston	3	-	3
Germaniya	2	1	1
Qirg'iz. Respublikasi	2	-	2
Tojikiston	2	1	1
Turkmaniston	2	2	-
Boshqa Davlatlar	13	9	4

IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar.

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539- son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1-aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Soq'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
X. Pardayev
75 221-17-93 (7060)

Maznil:
180100, Qarshi shahri.,
Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy
